

**“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.21/30.10.2020.Ped/S.127.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MAVLONOV BOXODIR BILOLJONOVICH

**OILADA O‘SMIR YOSHIDAGI BOLALARNING HUSHYORLIK VA
OGOHLIK FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISH**

13.00.09 – Ijtimoiy pedagogika

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on Pedagogical Sciences**

Mavlonov Boxodir Biloljonovich

Oilada o‘smir yoshidagi bolalarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini
rivojlantirish.....3

Мавлонов Боходир Билолжонович

Развитие качеств бдительности и осведомленности у детей подросткового
возраста в семье.....25

Mavlonov Bokhodir Biloljonovich

Developing the vigilance and awareness qualities of adolescent children in the
family.....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....54

**“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.21/30.10.2020.Ped/S.127.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MAVLONOV BOXODIR BILOLJONOVICH

**OILADA O‘SMIR YOSHIDAGI BOLALARNING HUSHYORLIK
VA OGOHLIK FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISH**

13.00.09 – Ijtimoiy pedagogika

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Ped2140 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengash veb-saytida (www.moiti.uz) va "ZiyoNET" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xodjayev Begzod Xudoyberdiyevich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Taylanova Shoxida Zayniyevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Kurbaniyazova Zamira Kalbayevna
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi PhD.21/30.10.2020.Ped/S.127.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "8" iyul soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100000, Toshkent shahar, Yashnobod tumani, Istiqbol ko'chasi, 51-uy. Tel.: (+99871) 267-05-36; faks: (+99871) 267-03-92; e-mail: mvoiti@exat.uz, mvoiti@gmail.com.

Dissertatsiya bilan "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent shahar, Yashnobod tumani, Istiqbol ko'chasi, 51-uy. Tel.: (+99871) 267-05-36; faks (+99871) 267-03-92; e-mail: mvoiti@exat.uz, mvoiti@gmail.com; veb-sahifa: www.moiti.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "24" iyun da tarqatildi.
(2023-yil "24" iyun dagi 2 raqamli reyestr bayonnomasi)



N.M.Egamberdiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

S.K.Alimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori

Sh.M.Sodiqova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, sotsiologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida axborotlarning globallashuvi, integratsiyalashuv va xalqarolashuvning jadalligi o'sib kelayotgan avlodda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mas'uliyatli munosabatni tarbiyalash, ijtimoiy daxldorlik va javobgarlik tuyg'usini rivojlantirish, hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishni taqozo etmoqda. AQSh, Yaponiya, Rossiya, Yevropa Ittifoqi davlatlarida o'quvchi-yoshlarni axborot, ma'naviy xurujlardan himoya qilish maqsadida "Internetdagi ko'ngilochar dasturiy ta'minot uchun maslahat kengashi"¹, Internetda bolalarni himoya qilish tashabbusi, Xavfsiz internet markazi, Raqamli Yevropa Dasturi² kabilarning faoliyati tizimli yo'lga qo'yilgan. Nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan ilgari surilayotgan "fuqarolik" va "tinchlik uchun" ta'lim g'oyalarini amaliyotga joriy etish umumiy o'rta ta'lim maktablari va oilaning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish, jamiyatni pedagogizatsiyalash orqali o'quvchi-yoshlarda XXI asr uchun xos axborot bilan ishlash, tanqidiy fikrlash, shaxsiy o'zlikni anglash kabi ko'nikmalarni rivojlantirishning istiqbolli modellarini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Dunyoda davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligi asosida o'smir yoshidagi bolalarda ma'naviy dunyoqarashni rivojlantirish, yaqin kattalar vositasida axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish, ota-onalarda virtual nazoratni amalga oshirish layoqatini tarkib toptirish orqali bolalarda hayotiy faoliyat xavfsizligini tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, axborot xurujlariga qarshi kurashishning ma'naviy-profilaktik tizimini takomillashtirish, oilalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyatning ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish, o'smir yoshidagi bolalarda ogohlik va hushyorlik fazilatlarini rivojlantirishda oila, maktab va mahalla hamkorligini takomillashtirish yanada dolzarblik kasb etadi.

Mamlakatimizda oilalar mustahkamligini ta'minlash, farzand tarbiyasiga doir namunali oilalarning hayotiy tajribasini ommalashtirish, umuminsoniy va milliy qadriyatlar hamda ilg'or xorijiy tajribalarni tahlil qilish asosida oilalarda ma'naviy muhitni barqarorlashtirishga doir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Maktablardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilashda rahbar va pedagog xodimlar, o'quvchilar hamda ota-onalarning hamkorligi va mas'uliyatini oshirish, o'quvchilarda axborotlarni tahlil qilish hamda bilimiga tayangan holda xolis xulosa qilish ko'nikmasini rivojlantirish, turli g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarning oldini olish immunitetini shakllantirish, o'quvchi tarbiyasida maktab, oila, mahalla va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamkorligini yanada kuchaytirish"³ ma'naviy-ma'rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishning ustuvor

¹ <https://www.ontario.ca/page/go-its-35-ontario-public-service-enterprise-change-management-standard>

² <https://www.ternitylaw.com/news/the-digital-europe-programme-overview>

³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi 558-son "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2022 y., 09/22/558/0887-son.

yoʻnalishlarini oʻzida aks ettiradi. Bu esa oilada oʻsmir yoshidagi bolalarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishga doir ijtimoiy-pedagogik faoliyat mazmunini yoritib berish, mazkur jarayonni amalga oshirishning ijtimoiy-pedagogik modeli hamda pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”, 2022-yil 7-martdagi PF-87-son “Oila va xotin-qizlarni tizimli qoʻllab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi farmonlari, 2022-yil 1-martdagi PQ-146-son “Oila va xotin-qizlar davlat qoʻmitasi faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida”gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-iyundagi 175-son “Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlarining taʼlim muassasalari bilan oʻzaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2022-yil 3-oktabrdagi 558-son “Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida maʼnaviy-maʼrifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Respublikamizda oilaviy hayot etikasining falsafiy, ijtimoiy va huquqiy jihatlari faylasuf, huquqshunos, sotsiolog olimlar N.Ashurova, M.Bekmurodov, M.Yoʻldoshev, D.Kenjayeve, O.Abduazimov, G.Matkarimova, K.Najmiddinova, D.Raximboyeva, Z.Roʻziyev, Z.Soliyeva, I.Ergashev, M.Oʻrazaliyev, I.Quvondiqov kabilar tomonidan tadqiq etilgan⁴. Oila tarbiyasining turli jihatlari pedagog olimlar O.Musurmonova, A.Munavvarov, M.Quronov, M.Abdullayeva, F.Abdurahimova, G.Aripova, G.Alimova, Sh.Atadjanova, D.Davronova, M.Inomova, S.Yoʻldosheva, M.Mahmudova, A.Muxsiyeva, N.Nagmetova, T.Narbayeva, Sh.Shodmonova, Y.Shaamirova, F.Xidirova, S.Chiniyeva kabilar tomonidan tadqiq etilgan⁵. V.Karimova,

⁴ Бекмуродов М., Бўронов М. Ижтимоий ўзгаришлар ва шукроналик туйғуси. – Т.: Маънавият, 2015. – 30 б.; Абдуазимов О. Аxborotlashgan jamiyatda jamoatchilik fikri monitoringini taʼminlashda ommaвий коммуникациялар социологиясининг ўрни (Ўзбекистон оммавий аxborot vositalarining 2001-2016 йиллардаги материаллари мисолида). соц. ф.д. дисс. автореф. – Тошкент: 2017. – 63 б.; Солиева З. Вояга етмаган болаларнинг фуқаролик ҳуқуқий мақоми. Юрид.фан.номз. ... дисс. автореф. – Т.: 2012. – 25 б.; Тўраев О. Ўзбекистонда ёшлар аxborot-психологик хавфсизлиги тизимини ривожлантириш жараёнллари. соц.ф.ф.д.(PhD) дисс. автореф. Тошкент: 2021. – 52 б.

⁵ Мусурманова О. Фарзандларимга насиҳатлар. – Тошкент: Ёшлар нашиёт уйи, 2022. – 180 б.; Quronov M. Oila – uchinchi renessansning eng mustahkam ustuni. – Toshkent: “Fan”, 2021. – 176 б.; Нарбаева Т.К. Таълим тизимида ёш авлодни ижтимоий ҳимоялашнинг педагогик асослари: пед.фан.номз. ... дисс. – Т.: 2009. – 176

G'.Shoumarov kabilar tomonidan muammoning psixologik jihatlarini o'rganilgan⁶. Oilalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat mazmuni va amaliy-texnologik jihatlarini N.Egamberdiyeva, Z.Kurbaniyazovalarning fundamental tadqiqotlarida o'z aksini topgan⁷. O'quvchi-yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish, axborot xavfsizligini ta'minlash kompetentligini rivojlantirish bo'yicha B.Xodjayev, O.Abduazimov, U.Yoziyeva, O.Davlatov, O.To'rayevlar ilmiy izlanishlar olib borishgan⁸.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan A.Azarovning ilmiy-tadqiqot ishlarida muammoning nazariy jihatlarini o'z ifodasini topgan bo'lsa, M.Buyanov, I.Grebennikov, Y.Ilin, I.Kulchiskaya, M.Lichutina, I.Xarlamov, I.Chernova, S.Shteynlarning pedagogik tadqiqotlarida oila va bolalarni ijtimoiy himoyalashga yo'naltirilgan faoliyat mazmuni kabilar ilmiy o'rganilgan⁹. O'smirlik va o'smirlik davri muammolari, psixologik-pedagogik va yosh xususiyatlari borasida F.Aries, I.Kon, D.Elkonin, A.Lyublinskaya, V.Kruteskiy, shuningdek, o'smirlarning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlari L.Vigotskiy, J.Piaje, P.Blonskiy, A.Vallon kabi psixologlar tomonidan tadqiq qilingan¹⁰.

Xorijlik olimlardan C.P.Ajisuksmo, S.Çakar, U.Kivanç, J.Degutis, T.Van Vleet, D.Rosengrant, D.Herrington, J.O'Brien, M.Sarter, J.Bruno kabilar bolalarni axborot xurujlaridan muhofaza qilish, ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini rivojlantirish, o'smir yoshidagi o'quvchilarda turli xatarli vaziyatlarda ekstremal kompetentlikni rivojlantirish masalalarini o'rganishgan. S.Andreas, Ch.Faulkner, R.Dilts, J.Delozier, J.Haley, J.O'Konnor kabilar neyrolingvistik dasturlashtirish texnologiyalari, psixoterapevtik texnikalardan foydalanish yo'llarini yoritib berishgan¹¹.

Biroq oilada o'smir yoshidagi bolalarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishga doir ijtimoiy-pedagogik faoliyat mazmunining ijtimoiy-pedagogik modeli, neyrolingvistik dasturlashtirish texnologiyasi asosida oilada bolalarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari

⁶ Шоумаров Ф, Қодиров У, Хожибоев И. Оилага психологик ёрдам кўрсатиш асослари. – Т.: 2014. – 55 б.

⁷ Эгамбердиева Н.М. Маданий-инсонпарварлик ёндашув асосида талабаларни шахсий ва касбий ижтимоийлаштириш назарияси ва амалиёти (Педагогика олий таълим муассасалари мисолида): Пед. фан. док. ... дисс. – Т., 2010. – 332 б.; Курбаниязова З.К. Аралаш таълим шароитида бўлажак ўқитувчиларнинг ижтимоий-педагогик компетентлигини ривожлантириш: педагогика фанлари бўйича фан доктори (DSc). ...дисс. – Тошкент, 2022. – 254 б.

⁸ Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: "Sano-standart", 2017. – 416 b.; Тўраев О. Ўзбекистонда ёшлар ахборот-психологик хавфсизлиги тизимини ривожлантириш жараёнлари. соц.ф.ф.д.(PhD) дисс. автореф. Тошкент: 2021. – 52 б.

⁹ Личутина М.Г. Взаимодействие школы-и семьи по предупреждению наркомании в младшем подростковом возрасте: дис. . канд. пед. наук. – Киров, 2007. – 207 с.

¹⁰ Выготский Л.С. Психология развития человека. – М.: Изд-во Смысл; Изд-во Эксмо, 2005. – 1136 с.; Пиаже Ж. Психология интеллекта. – Питер, 2002. – 247с.; Валлон А. Психическое развитие ребёнка. М.: Просвещение, 1967. – 196 с.

¹¹ Çakar S.F., Kivanç U. Teacher Abuse, School Burnout and School Attachment as Predictors of Adolescents' Risky Behaviors//Pegem Journal of Education and Instruction. – 2021. – V. 11. - №1. – P. 217-258.; Warm, J. S., Parasuraman, R., & Matthews, G. Vigilance requires hard mental work and is stressful. Human factors, 50(3), 2008. – 433-441 p.; Rosengrant D., Herrington D., O'Brien J. Investigating Student Sustained Attention in a Guided Inquiry Lecture Course Using an Eye Tracker//Educational Psychology Review. – New York. – 2021. – V.33. – №1. – P.11-26.

maxsus o'rganilmagan. Bu esa oilada o'smir yoshidagi bolalarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish yuzasidan ijtimoiy-pedagogik tadqiqotni amalga oshirishni taqozo etdi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifatchilik siyosatini rivojlantirish va takomillashtirish" (2017–2019-y.y.) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oilada o'smir yoshidagi bolalarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oilada o'smir yoshidagi bolalarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligini asoslash;

oilada o'smir yoshidagi bolalarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishga doir ijtimoiy-pedagogik faoliyat mazmunini yoritib berish;

oilada o'smir yoshidagi bolalarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish modelini ishlab chiqish;

o'smir yoshidagi bolalarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishning neyrolingvistik dasturlashtirish texnologiyalarini takomillashtirish.

Tadqiqot obyekti sifatida oilada o'smir yoshidagi bolalarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish jarayoni belgilanib, unda Qashqadaryo, Namangan, Jizzax, Samarqand viloyatlaridan 250 ta oila, 300 nafar ota-ona va 300 nafar o'smir yoshidagi bolalar ishtirok etgan.

Tadqiqot predmetini oilada o'smir yoshidagi bolalarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-pedagogik adabiyotlar, me'yoriy hujjatlarni o'rganish, analiz, sintez, taqqoslash, kuzatish, suhbat, so'rovnoma, pedagogik eksperiment, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oilada o'smir yoshidagi bolalarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari yaqin kattalar vositasida shaxslararo munosabatlarning barqarorligini ta'minlash, sotsiumning salbiy ta'sirini minimallashtirish, maqsadli va vositali qadriyatlarining internallashuv darajasini kengaytirish orqali aniqlashtirilgan;

oilada o'smir yoshidagi bolalarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishga doir ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish jarayonlari ota-onalar uchun modulli trening dasturlari asosida andragogik ta'limni maqsadli loyihalash asosida takomillashtirilgan;

oilada o'smir yoshidagi bolalarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish modelining amaliy komponenti milliy tarbiya va ma'naviy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan innovatsion ijtimoiy-pedagogik ish shakllarining reproduktivligi validligini ta'minlash orqali takomillashtirilgan;

o'smir yoshidagi bolalarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishning neyrolingvistik dasturlashtirish texnologiyalari so'zdan foydalash, og'zaki bo'lmagan darajada sozlash, reklama, "langar", ishonchli munosabatlar, SMARTEF, imijining, mantiqiy darajalar bilan ishlash kabi ijtimoiy-pedagogik texnikalarning adaptivligini ta'minlash orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

"O'smirlarda ogohlik va hushyorlik fazilatlarini oilada shakllantirishning amaliy-uslubiy imkoniyatlari" nomli uslubiy qo'llanma nashr ettirilgan;

"O'smir yoshidagi bolalarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish" nomli uslubiy qo'llanma nashr ettirilgan;

o'smir yoshidagi bolalarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishga doir **www.pedcontrols.uz** platformasi yaratilgan;

oilada o'smir yoshidagi bolalarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishning neyrolingvistik dasturlashtirish texnologiyalarini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, foydalanilgan nazariy yondashuvlar pedagogika, psixologiya va sotsiologiya metodologiyalariga tayangan holda tatbiq etilganligi, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlarida, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda maqolalar chop etilganligi, o'smirlarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishda oilalar va ta'lim institutining o'rni, usullari borasida ota-onalar va o'smirlar orasida o'tkazilgan representativ tanlovga asoslangan empirik sotsiologik tadqiqot natijalariga tayanilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning tajriba-sinov ishlari natijalari asosida ishlab chiqilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati "axborot xurujlari", "hushyorlik", "ogohlik", "hushyorlik va ogohlik fazilatlarini" kabi tushunchalarning mohiyati ochib berilganligi, oilada o'smir yoshidagi bolalarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligining asoslab berilganligi, oilada o'smir yoshidagi bolalarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlarining yoritib berilganligi, mazkur jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oilada o'smir yoshidagi bolalarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishga doir ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish jarayonlari ota-onalar uchun modulli trening dasturlari asosida andragogik ta'limni maqsadli loyihalash, oilada o'smir yoshidagi bolalarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish modelining amaliy komponenti innovatsion ijtimoiy-pedagogik ish shakllarining reproduktivligi validligini ta'minlash orqali takomillashtirilganligi, "Senzitivlik" va "PXAB (potensial xatarni adekvat baholash)" mualliflik texnologiyalarining ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oilada o‘smir yoshidagi bolalarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

oilada o‘smir yoshidagi bolalarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari yaqin kattalar vositasida shaxslararo munosabatlarning barqarorligini ta‘minlash, sotsiumning salbiy ta‘sirini minimallashtirish, maqsadli va vositali qadriyatlarining internallashuv darajasini kengaytirish orqali aniqlashtirilganligiga doir amaliy taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son Farmoni bilan tasdiqlangan Kompleks chora-tadbirlar rejasining 89-bandi ijrosini ta‘minlash maqsadida oilalarning baxtlilik darajasi indikatorlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Mahalla va oila ilmiy-tadqiqot institutining 2022-yil 2-noyabrdagi 305-02-son ma‘lumotnomasi). Natijada, o‘smir yoshidagi bolalarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishda oilaning o‘rni va rolini baholash mezonlarini ishlab chiqishga xizmat qilgan;

oilada o‘smir yoshidagi bolalarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishga doir ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish jarayonlari ota-onalar uchun modulli trening dasturlari asosida andragogik ta‘limni maqsadli loyihalash asosida takomillashtirilganligiga doir amaliy taklif va tavsiyalardan “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan JHBL-21 “Gender yondashuv asosida yoshlarni kasbga yo‘naltirishning nazariy metodologik jihatlarini” (2021-yil) mavzusidagi ilmiy loyihaning o‘quvchi-yoshlarni kasbga yo‘naltirishda mahalla, oila va ta‘lim muassasalari hamkorligini tashkil etishning nazariy va amaliy shart-sharoitlarini aniqlash qismini bajarishda foydalanilgan (“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutining 2022-yil 2-noyabrdagi 305-02-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ota-onalarning o‘smir yoshidagi bolalarni pedagogik nazorat qilish va bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish mexanizmini takomillashtirishga xizmat qilgan;

o‘smir yoshidagi bolalarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish, atrof-muhitdagi narsa-hodisalarni adekvat baholash, milliy tarbiya va ma‘naviy kompetensiyalari “O‘smir shaxsining internet-ijtimoiylashuv modeli” orqali takomillashtirilganligiga doir amaliy taklif va tavsiyalardan “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan JHBL-92 “Migrant oila farzandlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” (2022-yil) mavzusidagi ilmiy loyihaning migrant oila farzandlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bo‘yicha uslubiy qo‘llanma yaratish qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutining 2022-yil 2-noyabrdagi 305-02-son ma‘lumotnomasi). Natijada, o‘smir yoshidagi bolalarning ijtimoiylashuvini ta‘minlashda innovatsion ijtimoiy-pedagogik ish shakllaridan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

o‘smir yoshidagi bolalarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishning neyrolingvistik dasturlashtirish texnologiyalari “so‘zdan foydalanish”, “og‘zaki bo‘lmagan darajada so‘zlash”, “reklama”, “langar”, “ishonchli munosabatlar”, “SMARTEF”, “imijiniring”, “mantiqiy darajalar bilan ishlash” kabi ijtimoiy-pedagogik texnikalarning adaptivligini ta‘minlash orqali

takomillashtirilganligiga doir amaliy taklif va tavsiyalardan Respublika ta'lim markazining YuNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda "O'zbekistonda har bir bola uchun sifatli ta'limni ta'minlash bo'yicha ko'rsatmalar"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Respublika ta'lim markazining 2023-yil 4-maydagi 01/11-02/2-304-son ma'lumotnomasi). Natijada, umumiy o'rta ta'lim maktabi sifatli ta'lim muhitini yaratishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, 2 ta uslubiy qo'llanma, 3 ta risola, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 132 sahifa asosiy matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati aks ettirilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Oilada o'smir yoshidagi bolalarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida oilada o'smir yoshidagi bolalarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik muammo hamda o'smirlarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishda oila asosiy ijtimoiy institut ekanligi, oilada o'smir yoshidagi bolalarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishning mavjud holati yoritib berilgan.

O'zbekistonda bugungi kunda 10–19 yoshdagi o'smirlar soni 5 769 928 nafarni tashkil etib, mamlakat aholisining qariyb 16 foizini tashkil etadi.

Oilalarda va ta'lim muassasalarida o'smir yoshidagi bolalarda turli axborot manbalari va Internet orqali tarqatilayotgan turli axborotlarga immunitetni shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. "Afsuski, ba'zi yoshlarimizda Internetdan to'g'ri foydalanish ko'nikma va madaniyati yetarli emas..., balki shunchaki ko'ngilochar vosita deb bilishadi. Mana shunday mafkuraviy kurash sharoitida yoshlarimiz sezgir va ogoh bo'lishi, har bir masalada, avvalo, Vatan manfaatini o'ylab ish tutishi zarur"¹². Zero, rivojlangan, keng ko'lamli axborot makoni ijobiy va salbiy jihatlariga ega bo'lib, inson qalbi va ongiga tez ta'sir qila

¹² Mirziyoyev Sh. O'zbekiston yoshlari forumida so'zlagan nutqi. // "Xalq so'zi" 26.12.2020 y., 273 (7775)-son.

olish xususiyati tufayli ezgu va yovuz kuchlarning kurash maydoniga aylangan holda axborot xavfsizligini ta'minlash masalasi bilan birgalikda o'sib kelayotgan o'smirlarning ogohlik va hushyorlik fazilatlarini shakllantirish, mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish hamda ularning natijalarini amaliyotga tatbiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiq etilayotgan masalaning dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo ekanligini asoslash maqsadida "o'smirlar", "o'smirlik davri" "o'smirlarning axborot xavfsizligi", "axborot tahdidi", "o'smir tarbiyasi", "hushyorlik", "ogohlik", "o'smirlarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini" kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini aniqlashtirishga alohida e'tibor qaratildi.

Bugungi kunda o'smirlik yoshi borasida ko'plab olimlarning ilmiy konsepsiyalari bor va ular o'zining xususiyati, talqini, yosh chegarasi bilan bir-biridan farqlanadi. Zamonaviy ilm-fan o'smirlikni mamlakat, madaniy va milliy xususiyatlariga, shuningdek, jinsiga qarab, odatda, 10–19 yoshgacha oraliqda belgilaydi. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg'armasi (UNFPA) terminologiyasiga ko'ra, o'smirlar 10–19 yoshdagi shaxslar (erta o'smirlik – 10–14 yosh; kech o'smirlik – 15–19 yosh)¹³.

Zamonaviy adabiyotlarda "xavfsizlik" tushunchasi obyektning o'z funksiyalarini cheklashi va o'zining ichki qonunlari asosida rivojlanadigan shart-sharoitlar, omillar tizimi sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, xavfsizlik individ yoki jamiyatga xavf-xatar tug'diruvchi shart-sharoit va omillardan himoyalaniş tarzida ham ta'riflanadi¹⁴.

Hushyorlik va ogohlik fazilatlarining mohiyatini anglash maqsadida mazkur tushunchalarning interpretatsiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. *Hushyorlik* (бдительность, vigilance) – bu insonning kutilgan va kutilmagan hodisalarga tezda javob berishga tayyorligini ifodalovchi ruhiy holat, shuningdek, insonning axloqiy va irodaviy sifatlari majmui. Zamonaviy psixologiyada hushyorlik, doimiy konsentratsiya (e'tiborda bo'lish) deb ham ataladi, uzoq vaqt davomida diqqatni jamlash qobiliyati sifatida ta'riflanadi¹⁵. Bu vaqt ichida odam ma'lum bir maqsadli stimulning ko'rinishini aniqlashga harakat qiladi. Noma'lum vaqtda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan signalni kuzatadi.

Ogohlik (осведомленность, awareness) – bu ong holati yoki idrok etilgan bilim sifati bo'lib, hodisalarni idrok etish, his qilish, bilish yoki xabardor bo'lish qobiliyati bilan ifodalanadi¹⁶. Ogohlik, **birinchidan**, biror narsani anglash yoki anglashning ichki, subyektiv holati¹⁷, **ikkinchidan**, hushyorlik, onglilik. Bu atama uzoq tarixga ega bo'lib, oddiydan tortib, murakkab kognitiv va emotsional hodisalarni chuqur anglashgacha bo'lgan keng doiradagi subyektiv hodisalarni bilishda namoyon bo'ladi.

¹³ Щербакова Е. Возрастные границы отрочества и юности не жестки: 9.04.2020 // Демоскоп Weekly. 2012. – С. 509-510.

¹⁴ Толковый словарь Ожегова. <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ogegova/277095>


¹⁵ Warm J.S., Parasuraman R. Vigilance requires hard mental work and is stressful. Human factors, 50(3), 2008. pp. 433-441.

¹⁶ Psychology Glossary. <https://www.alleydog.com/glossary/definition.php?term=Awareness#>:

¹⁷ Толковый словарь русского языка Ефремова. <https://dic.academic.ru/dic.nsf/efremova/203945/>

O'smirlarni ijtimoiylashtirish jarayonida oila muhiti ularda mamlakat fuqarosining milliy ongi, qadriyatlar tizimi, axloqiy va huquqiy me'yorlar, dunyoqarash yo'nalishlari, ijtimoiy munosabatlar hamda ogohlik va hushyorlik fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik munosabatlarni qamrab oladi. Samarali ijtimoiylashuvni o'smirning jamiyat va shaxsning barcha boyligi, xilma-xilligida rivojlanishi uchun eng qulay bo'lgan ehtiyojlar to'plami va ierarxiyasini egallashi, o'zlashtirishi va shakllantirishi jarayoni deb hisoblash mumkin.

Oilada o'smir yoshidagi bolalarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish milliy-mafkuraviy tarbiya negizida amalga oshirilib, quyidagi sifatlar majmuini o'z ichiga qamrab oladi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Hushyorlik va ogohlik fazilatlariga doir sifatlar majmui

Oila va ta'lim tashkilotining hamkorlikdagi faoliyati murakkab ko'rinishga ega bo'lib, tadqiqotda mazkur jarayon samaradorligini oshirishning pedagogik bosqichlari (motivatsion, kommunikativ-faoliyatga yo'naltirilgan, kognitiv, refleksiv) takomillashtirildi.


Oila va maktab integratsiyasini ta'minlash orqali o'smirlarda hushyorlik va ogohlik fazilatlariga asoslangan ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishga erishiladi.

“Kompetensiya” ma'lum bir kompetentlilik kontekstida qo'llaniladigan aniq faoliyat sohasidagi ko'nikma va malakalarni o'zida ifoda etadi. Kompetentlik esa, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni amaliy faoliyat tajribasiga aylantirish, kundalik jarayonda qo'llay olish layoqatini bildiradi.

Tadqiqot doirasida ijtimoiy kompetentlilik shaxsiy tajribaga tayangan holda sotsiumda mavjud harakat tizimini tavsiflovchi ishonchli va konstruktiv xulq-atvorda namoyon bo'ladigan ijtimoiy o'zaro birgalikdagi harakat sohasidagi kompetesiyalar yig'indisi sifatida talqin qilindi. Demak, ijtimoiy kompetentlik – insonning sotsiumdagi faolligi va shaxsning subyektiv tajribasini namoyon qilishga imkon beruvchi integrallashgan ijtimoiy sifatlar tavsifidir.

Jarayonli yondashuv nuqtayi nazaridan ijtimoiy kompetentlilikni shakllantirish o'zida faoliyatning o'zaro aloqador va bog'liq tizimini ifoda etadi.

Hushyorlik va ogohlik fazilatlariga asoslanib, ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan hamkorlik jarayoni o‘zida quyidagilarni aks ettiradi: maqsad va kutiladigan natijalarni aniqlashtirish, mazkur maqsadlarning jamiyat va shaxs talablari bilan o‘zaro aloqadorligi; zarur resurslar, natijaga erishishda metod va vositalarni tanlash; monitoring jarayoni, korreksiya, ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish bo‘yicha olingan natijalarni tahlil etish (2-rasmga qarang).



2-rasm. Hamkorlik jarayonida o‘smirlarda hushyorlik va ogohlik fazilatlariga asoslanib ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish tuzilmasi

Hamkorlik jarayonida o‘smirlarda hushyorlik va ogohlik fazilatlariga asoslanib ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish tuzilmasi maqsadga yo‘naltirilgan, faoliyatga doir va natijaviy-korreksion komponentlarni o‘zida aks ettirib, dinamik tavsifga egadir. Dinamik jihat oila va maktab integratsiyasi orqali o‘smirlarda hushyorlik va ogohlik fazilatlariga asoslanib ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishning interfaol birgalikdagi hamkorlik faoliyatda o‘z aksini topgan.

Dissertatsiyaning **“Oilada o‘smir yoshidagi bolalarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida oilada o‘smir yoshidagi bolalarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishga doir ijtimoiy-pedagogik faoliyat mazmuni, zamonaviy o‘smirlarning Internet-ijtimoiylashuvini ta’minlashning pedagogik modeli va uni amaliyotga joriy etishning metodik ta’minoti hamda neyrolingvistik dasturlashtirish texnologiyasi asosida oilada bolalarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari yoritib berilgan.

Oilaning ijtimoiylashtirish instituti sifatidagi maqomini hech bir boshqa ijtimoiy guruh bilan qiyoslab bo‘lmaydi. Bola ijtimoiy munosabatlar va xulq-atvor me’yorlarini dastlab aynan oilada o‘zlashtirar ekan, avvalo, ota-ona, qolaversa, butun oila a’zolarining farzand kamoloti, muayyan fazilatlariga ega bo‘lishida

tutgan o'zni yuksak bo'lishi, shak-shubhasiz. Bu aksioma, shu jumladan, ogohlik va xushyorlik kabi katta hayotda nihoyatda muhim bo'lgan xususiyatlarning shakllanishida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Bizningcha, bunga asosiy sabab shundaki, doimo oiladagi ijtimoiylashuvning bosh maqsadi bola havfsizligini ta'minlashdan iborat bo'ladi. Bunda oila bolani ham tashqi xavf-xatarlardan ehtiyot bo'lishga, ham o'ziga-o'zi ziyon yetkazib qo'yishdan saqlanishga o'rgatib boradi. Har ikkala holatda ham tarbiyaviy ta'sirning muhim yo'nalishi aynan ogohlik va xushyorlik fazilatini shakllantirish bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

O'smirlarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish haqida fikr yuritganda, avvalo, shuni e'tiborga olish kerakki, bunday o'ta muhim sifatlar shaxsga xos psixologik xususiyatlar hisoblanib, ular ijtimoiylashuv, shu jumladan, oiladagi tarbiyaviy ta'sir, albatta, shaxsiy namuna negizida shakllantiriladi. Eng zamonaviy xorijiy tadqiqotlar ham bolalarni xavfli, tavakkalga asoslangan xatti-harakatlarga undovchi asosiy omillar qiziquvchanlik va tengdoshlar bosimi bo'lsa, aksincha, hushyor bo'lishga, ehtiyotkorlik bilan harakatlanishga avvalo, oila a'zolarining maslahatlari hamda gunoh amallardan qo'rquv asos bo'lishini ko'rsatmoqda¹⁸. Keyinchalik katta hayotda inson tanlagan kasbiy yo'nalishida hushyorlik va ogohlik hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi (masalan, uning kasbi ko'p sonli odamlar havfsizligini ta'minlash, murakkab texnologik jarayonlarni boshqarish bilan bog'liq bo'lishi) mumkin. Ammo o'sha kasblarga ta'lim jarayonida tayyorgarlik ko'rishda aynan oilada bolalikdan boshlab shakllantirilgan ogohlik, sergaklik kabi sifatlar asos bo'lishini hisobga olganda bu borada oilaviy muhitning ta'siridan samarali foydalanish naqadar muhimligini anglaymiz.

Albatta, oilada bolalarning kamol topishi jarayonida ularda hushyorlik va ogohlik kabi fazilatlarini rivojlantirish jarayoni bola shaxsiga muayyan pedagogik-psixologik ta'sir o'tkazishni nazarda tutadi. Masalaning eng asosiy amaliy tomoni shundaki, bunday ta'sir natijador bo'lishi uchun uni amalga oshirishda to'g'ri yo'nalishlar tanlab olinishi kerak. Belgilangan maqsadda ta'sir yo'nalishini to'g'ri tanlash uchun esa, bevosita hushyorlik va ogohlikning amaliy ifodasi, inson xatti-harakatlaridagi ko'rinishidan kelib chiqib yondashish asosli bo'ladi, deb hisoblaymiz. Maxsus adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hushyorlik va ogohlik eng avvalo, bilish subyekti tomonidan atrof-muhitda bevosita yoki bilvosita xavf-xatar tug'dirishi mumkin bo'lgan omillar, voqea-hodisalar, shaxslarning harakatlarini o'z vaqtida, ya'ni ular qandaydir zarar yetkazishidan oldin ulgurib qolishida o'z amaliy ifodasini topadi¹⁹. Demak, bundan ma'lum bo'ladiki, ogohlik va xushyorlikning yetishmasligi odatda uch asosiy sabab tufayli ro'y beradi:

1. Ehtimol tutilgan xavf-xatarni aniqlashga yo'nalmaganlik. Bunga shaxs psixologik yo'nalishini belgilovchi tuzulmalar (qiziqish, ideallar, dunyoqarash va b.) atrof-olamdagi unga bevosita yoki bilvosita salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin

¹⁸ Ajisukmo C.P. Why Some Adolescents Engage in Risk-Taking Behavior// International Journal of Educational Psychology. – Barcelona. – V.10. – №2. – P.143-171.

¹⁹ Попова З.Д., Стернин И.А. Очерки по когнитивной лингвистике. – Воронеж: Истоки, 2001. – С.119.; Sarter M., Bruno J.P. Vigilance// Encyclopedia of the Human Brain. - San Diego: Academic Press, 2002. – P. 687-699.; Харламенкова Н. Е., Тарабрина Н. В., Быховец Ю. В., Ворона О. А., Казымова Н. Н., Дымова Е. Н., Шаталова Н. Е. Психологическая безопасность личности: имплицитная и эксплицитная концепции. – М.: Изд-во «Институт психологии РАН», 2017. – С.167.

bo'lgan narsa-hodisalarni o'z vaqtida aniqlashga intilishni hosil qiladigan darajada motivlashtiruvchi quvvatga ega emasligi olib keladi.

2. Ehtimol tutilgan xavf-xatarni elementar payqamaslik. Bunga bilish jarayonlari psixologiyasi nuqtai nazaridan insonning diqqat hajmi torligi, muayyan obyektни idrok etishda uning foni, ya'ni yon-atrofidagi, unga nisbatan ikkinchi o'rinda turgan narsa-hodisalarni sezmay qolishi sababchi qilib ko'rsatiladi.

3. Ehtimol tutilgan xavf-xatarning darajasini anglamaslik. Bu yerda asosiy masala shundaki, ehtimol, odam yetarlicha rivojlangan kuzatuvchanlik va diqqat taqsimlanishi xususiyatiga egadir va shu sifatlar evaziga tegishli bilinar-bilinmas ta'sirlarni, narsa-hodisalardagi salbiy o'zgarishlarni payqaydi, ammo ularning jiddiylilik darajasi, xavflilik ehtimolini past baholaydi, e'tiborga olishga arziydigan holat, deb bilmaydi.

Zamonaviy yoshlar muloqot qilish, muammolarni muhokama qilish, fikr bildirish, ishlash, o'qish, yangi faoliyat modellarini o'zlashtirishga imkon beruvchi maydon sifatida Internetdan faol foydalanadi. Shu sababli insonning ijtimoiy rivojlanishining maqsadli va yo'naltiruvchi jihatiga ustuvorlik beradigan ijtimoiylashuvning an'naviy agentlari(oila, ta'lim tashkiloti, mahalla, sotsium va boshqalar)dan farqli ravishda Internet nochiziq va nazorat qilib bo'lmaydigan jihatlari bilan ajralib turadi. Internet-muhitga murojaat qilish orqali o'smir mustahkam ijtimoiy-madaniy asos va an'analarga ega bo'lmagan ijtimoiy tarmoqda qabul qilingan qadriyat hamda me'yorlarni o'zlashtiradi. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, Internet-ijtimoiylashuv – axborot texnologiyalarini o'zlashtirish orqali Internetning ijtimoiy-madaniy muhitini qabul qilish orqali foydalanuvchining ijtimoiy tajribani kengaytirish jarayoni, degan xulosaga kelish mumkin.

Internet-muhitda shaxs ma'lum bir harakatga o'zining faolligini yoki o'z-o'zini aks ettirish mexanizmi yordamida xulq-atvorni namoyon qiladi. Mazkur real muhitda amal qilmaydi, faqat internet-muhitda u ko'proq dolzarblik kasb etadi va yetakchi o'rin egallaydi. Ushbu mexanizm foydalanuvchining virtual shaxsini shakllantirishning asosini tashkil etadi.

Virtual shaxs deganda istalgan obraz ko'rinishida virtual muhitda internet-foydalanuvchining shaxsiy o'z-o'zini namoyon etishi tushuniladi. Virtual shaxsning uchta turini ajratib ko'rish mumkin:

- kongruentli (virtual shaxs reallikka mos keladi);
- nokongruentli (ham real va xayoliy tasavvurlar mavjud);
- xayoliy (real shaxs bilan hech bir o'xshashlikka ega emas).

Internet-ijtimoiylashuv o'zining ma'lum bir tarkibiy asoslariga egadir.


Internet-ijtimoiylashuvining motivatsion komponenti quyidagi uch guruh motivlar bilan bog'liq:

- real va internet-muhiti bilan bog'liq motivlar;
- internet-muhitidan tashqarida qoniqdirish qiyin bo'lgan motivlar;
- internet-muhitidagi faqat bir shaxsning o'ziga taalluqli motivlar (ma'lum bir sababning mavjudligi; shaxsiy maydonga ega bo'lish istagi; o'z-o'zini namoyon qilishga xohish; ma'lum bir maqomga ega bo'lish istagi).

Mifologik komponent internetning inson hayotidagi konstruktiv va yolgʻon tasavvurlarga foydalanuvchilarning birlashuvini ifoda etadi.

Vositali komponent foydalanuvchi tomonidan oʻzlashtirilgan tarmoq madaniyatiga jalb etishga doir amaliy kompetentlikni oʻz ichiga oladi.

Yuqoridagi tarkibiy asoslar internet-ijtimoiylashuvning hamma jarayonida namoyon boʻladi, ular orasida ketma-ketlik mavjud emas. Barcha tarkibiy asoslar tashqi obyektiv (internet-tarmoqqa kirishning mavjudligi) va ichki subyektiv omillar (shaxsiy faollik) bilan bogʻliq (3-rasmga qarang).



3-rasm. Oʻsmir shaxsining Internet-ijtimoiylashuv modeli

Pedagogik-psixologik nuqtai nazardan oʻsmir bolalarda oila muhitida ogohlik va xushyorlik fazilatlarini rivojlantirish uchun bir tomondan, ularning bilish jarayonlarini sezgirlik tarafga qarab kuchaytirish, ikkinchi tomondan, aniqlangan, sezilgan narsa-hodisalarning oʻtmish va kelajagi haqida bir necha bosqichga chuqurroq mulohaza yuritishga odatlantirish strategiyalarini tanlash samarali boʻlishi mumkin. Ana shu jihatni hisobga olib tadqiqot doirasida ota-onalar uchun moʻljallangan ikkita mualliflik texnologiyasi ishlab chiqildi.

I. “Senzitivlik” texnologiyasi.

Atrof-muhitni bilish jarayonida obyektga nisbatan sezgirlikni rivojlantirish amaliyoti:

1-bosqich. Bolaga uni bevosita qurshab turgan muhit (shaxsiy xonasi, uy, hovli va hokazo) da soʻngi kunlarda boʻlgan eng kichik oʻzgarishlarni eʼtiborga olib, har hafta soʻngida xabar berish vazifasini topshirish.

2-bosqich. Bolaga oʻquv muassasasigacha boʻlgan yoʻlda bir haftada roʻy bergan qandaydir noodatiy hodisalarni qayd etib, asosiysi ularning atrof-muhitidagi holatlarni maksimal aniqlik bilan tasvirlashni taklif etish.

3-bosqich. Bolaga muayyan joyda bir vaqtda ro'y bergan hodisalarni juft-juft qilib (ikkita bir vaqtda sodir bo'lgan hodisani juftlikda) keltirib berishni, hafta davomida uning e'tiborini tortgan shunday voqealarning ro'yxatini tuzib chiqishni o'ziga xos aqliy o'yin sifatida vazifa qilib qo'yish (keyinchalik buni uchtdan, to'rttdan va h. bir vaqtda ro'y beruvchi hodisalar misolida ham amalga oshirish mumkin).

4-bosqich. Bolani agar unda ma'lum narsa-buyum yoki muayyan xatti-harakatni odamlar ko'radigan ochiq joyda yashirishga qandaydir zarurat bo'lib qolganda, ularni qaerda, nimalar fonida joylashtirishi mumkinligi haqida o'ylatirish qo'yish.

5-bosqich. Bolaga hayot, salomatlik, mol-mulk va obro'ga xavf-xatar tug'dirishi mumkin bo'lgan vaziyatlarning ro'yxatini tuzib berish lozim bo'lsa, uning tarkibidan qanday ogohlantirishlar o'rin olishi mumkinligi haqida bandma-band (har bir yo'nalishda, ya'ni hayotga, salomatlikka, mol-mulk va shaxsiy mavqe, obro'ga) yozib berishni taklif etish.

Ko'rinib turganidek, keltirilgan strategik chora-tadbirlarning negizida, birinchidan, asta-sekin bolani avval unga yaqin bo'lgan uy-joy sharoitidan kattaroq makondagi voqea-hodisalarni kuzatishga, sinchkovlik bilan ularni o'rganishga qaratilgan yondashuv tadbiriq etiladi, ikkinchidan, bosqichma bosqich, bolaga muayyan kuzatuvchanlik vazifasidan amalda o'z qo'li bilan o'sha sinchkovlikni namoyon etishini nazarda tutadigan topshiriqlarga o'tiladi.

II. "PXAB (Potentsial xatarni adekvat baholash)" texnologiyasi.

Atrof-olamdagi narsa-hodisalardagi potentsial xatarni adekvat baholash sifatini rivojlantirish amaliyoti:

1-bosqich. Bolaga o'zi ko'rgan kinofilmlardan yoki o'qigan kitoblardan dastlab qahramonlar oshkora e'tiborga olmagan, mensimay qaragan, ammo keyinchalik ulkan talafotlar, olamshumul o'zgarishlarga olib kelgan hodisalar yuzasidan qiziqarli ma'lumotnoma tayyorlashni taklif etish.

2-bosqich. Bolaga o'zida yoki biror do'stida ro'y bergan kasallik, tan jarohati dastlab qanday alomatlarda namoyon bo'lgani, ammo bu ilk kichik alomatlar e'tiborga olinmaganda ko'p o'tmay qanday asoratlar yuzaga kelgani haqida o'ylanib ko'rish va so'zlab berish vazifasini topshirish.

3-bosqich. Bolaga vaqti-vaqti bilan o'ta-ketgan "vahimachi odam" ro'lida bo'lib ko'rishni, shu rolga pozitsiyadan turib qandaydir juda kichik, arziyas hodisani, uning maksimal uzoq oqibatlarini izohlash topshirig'ini qo'yish.

4-bosqich. Bolani biror yaqin inson yoki do'st qandaydir xatti-harakat rejasini aytgan vaziyatni tasvirlab (masalan, do'sti qaergadir metroda borishni reja qilayotganini, qaysidir kitobni kserokopiyadan chiqarib olishni o'ylayotganini va shu kabi boshqa oddiy kundalik ishlar haqida aytayotgan bo'lsin), shunday ishlardan oldin uni qanday qilib, qaysi so'zlar bilan ehtiyotkorlikka undash mumkinligi haqida o'ylantirib qo'yish.

5-bosqich. Bolani inson hayoti, sog'lig'i, mol-mulki va obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatish mumkin bo'lgan turli omillarning (har safar bu mavzudagi muloqotda ulardan birini tanlab olib) xavfli tomonlarini, ayanchli oqibatlarini yaqinlar va

do'stlarga qanday qilib tushuntirish mumkinligi yuzasidan mulohaza qilib ko'rishga chorlash.

Insoniyat har doim atrofidagi odamlarga qanday ta'sir o'tkazish va ulardan o'zi xohlagan maqsadga erishishi uchun qo'llash mumkin bo'lgan texnika va usullarni topishga intilgan. Bugungi kunda mashhur neyrolingvistik dasturlash ma'lum darajada maxfiylik pardasini ochadi. Mazkur texnika odamni ma'lum darajada manipulyasiya qilishi mumkin, degan fikrga asoslanadi. Ushbu usul qanday ishlashini tushunish uchun uning terminologiyasini o'rganish maqsadga muvofiq. NLD (NLP, HJII) qisqartmasi uchta so'zdan iborat bo'lib, yunoncha "neuro" – "asab" va lotincha "lingua" – "til" hamda "programing" – "dasturlash" so'zlaridan iborat. Uning mohiyati shundaki, inson faoliyati miya neyronlari tomonidan boshqariladi, ular uning harakatlari, prinsiplari, qo'rquvlari, noroziliklari va tajribalari haqidagi ma'lumotlarni eslab qoladi hamda ong ostida saqlaydi. To'g'ri tanlangan til tizimi esa ma'lumotni nafaqat ongostida topish, balki to'g'ri yo'naltirish qobiliyatiga ham ega. Dasturlash orqali aynan mana shu bog'liqlik asosida inson xatti-harakatlari, hayotiy prinsiplari va fazilatlari rivojlantirilishi mumkin. "Dasturlash" miyaning ishlashini kompyuterning ishlashiga monandlashtiradi.

